

**O‘qitishning zamonaviy shakllari va metodlarini,  
kompyuter va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta’lim jarayoniga  
joriy etishning ahamiyati. (aniq fanlar misolida)**

**Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat Universiteti akademik litseyi  
matematika fani o‘qituvchilari**

**Sadullayev Ne‘matjon Shavkatovich, Xo‘jayeva Nargiza Abdusharipovna**

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi “Harakatlar strategiyasi”da ta’lim sifatini yaxshilash va pedagoglar salohiyatini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Aqlni uyg‘otuvchi ma’naviy olam rivojida har bir pedagog turli qiyinchiliklar va muammolarga duch kelishi tabiiy hol. O‘z ustida muntazam ishlaydigan va yetuk bilimga ega kadrlargina zamon talabiga mos holda faoliyat olib borish layoqadiga egadirlar. Bunday kadrlarni kamolga yetishida jamiyatdagi ta’lim tizimi va unda chiqarilayotgan qonun va qarorlarning ahamiyati juda kata. Jamiyat rivojlanishining har bir bosqichida ta’lim mazmuni muayyan maqsad va vazifalarga ega bo‘lib kelgan.

Yurtimizda 27.07.2017-yilda qabul qilingan PQ-3151 “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida “O‘qitishning zamonaviy shakllari va metodlarini, kompyuter va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta’lim jarayoniga joriy etish, oliy ta’lim muassasalarini zamonaviy o‘quv-laboratoriya anjomlari va o‘quv metodik adabiyotlar bilan ta’minlash, ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, oliy ta’lim muassasalarining zamonaviy ilmiy laboratoriyalarini tashkil etish va rivojlantirish choralari ko‘rish” kerakligi keltirib o‘tilgan. Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, ta’lim mazmuni davr talabi, nazariy bilim va ishlab chiqarish taraqqiyoti darajasiga mos ravishda o‘zgarib turadi. Ta’lim mazmuni ijtimoiy hodisa sifatida maydonga keladi va u o‘zining boshlang‘ich davrida amaliy ahamiyat kasb etgan, ya’ni insonlarning hayotiy ehtiyojlari uchun zarur hisoblangan bilimga bo‘lgan talabini qondirgan. Bugungi kunda ta’lim hayotning eng muhim mazmunini tashkil qilgan holda unga bo‘lgan e’tibor tobora ortib undagi bilim va ko‘nikmalarni o‘quvchiga tez va ososn yetkazish borasida ko‘plab tadqiqotlar olib borildi va albatta buning muayyan strategiyasi va tizimi ishlab chiqildi. Hozirgi kunda ta’limni tashkil etishda innovatsion texnologiyalar, turli interfaol metodlar va didaktik o‘yinlardan samarali foydalanishga e’tibor berilmoqda. Dars jarayonida turli interfaol metodlar va

didaktik o'yinlar texnologiyalari o'quvchi-talaba faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan bo'lib, o'quvchi-talaba shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqaradi va yosh avlodni har tomonlama rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Didaktik o'yinlarning asosiy turlari: intellektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat. Bu o'yinlar ishtirokchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirlik, mehnat va boshqa ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. "Ba'zi o'quvchi-talabalar ma'ruzalarda foydalaniladigan an'anaviy ta'lim usullaridan qoniqib o'qiydi, ba'zilar amaliyotni ma'qul ko'radi, ba'zilar esa ilmiy tadqiqod ishlarni, muammoli vaziyatlarni, o'yinli ta'lim usullarni xush ko'radi. O'quvchi-talabalarga bilim berishda dars jarayonini turli xil usullar orqali tashkil qilish o'ta muxim. Aynan muayyan davr mobaynida shakllangan ta'lim texnologiyalari uzoq tarixiy davr va bosqichlarni bosib o'tdi, bunda o'zining ilmiy fikr va g'oyalari bilan ta'limni rivojiga o'z hissasini qo'shib kelgan ko'pgina didakt olimlarni aytib o'tish joizdir: G.M. Grinberg, E.G. Doroshenko, I.O. Zagashev, S.I. Zair-Bek, A.M. Kamenskiy; N.I. Pak, M.A. Sokolskaya; I.K. Kondaurova; Dj.L. Stil; D. Xalpern, M.G. Yanov, M.V. Grigoryev, E.E. Morozov, S.V. Sergeev, V.A. Yasvin, M.A. Goncharov, V.A. Denisenko, A.L. Nosov, N.V. Shevchenko, K. Petersen va boshqalar. Mamlakatimizda ta'lim jarayonida olib borilayotgan islohotlar jamiyat taraqqiyoti va farovonligini ta'minlovchi omil bo'lib, undagi o'zgarishlarning asosiy maqsadi yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalashdir. Yurtimiz taraqqiyoti bugungi o'quvchilarning qanday tarbiyalanayotganligi, zamonaviy bilim va kasb-hunarni egallashga layoqati bilan o'lchanadi. Ma'lumki, har bir ta'lim jarayoni bolaning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi, kommunikativ savodxonligi va o'z-o'zini anglash salohiyatini shakllantirishga, jismonan sog'lom bo'lishga, milliy urf-odatlarni o'zida singdirish va ardoqlash, ularga rioya qilishga o'rgatadi. Shu bois boshlang'ich ta'limdan to akademik litsey, hamda oliy ta'lim tizimi bo'g'inigacha matematika fanining o'qitilishiga juda kata e'tibor qaratilmoqda, chunki matematika fani mantiqiy fikrlash va dunyoqarashni kengaytiruvchi, o'quvchi tafakkurini charxlaydigan eng muhim fan hisoblanadi.

Albatta bu fanni mukammal o'zlashtirish va yetarli darajada bilim ko'nikmaga ega bo'lishda dars jarayoniga interfaol metodlarni kiritish va o'quvchilarni o'z ustida ko'proq ishlashga undash zarur, bunda esa interfaol metodlar va axborot kommunikatsiya texnologiyalarni kiritish juda muhim masala hisoblanadi. Buning uchun har bir ta'lim muassasasi o'zining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashi va takomillashtirishi lozim, bu esa ta'lim jarayoniga axborot kommunikatsiya

texnologiyalarni kiritishga yaqindan yordam beradi, bu jarayon an'anaviy pedagogik ta'limdagidan farqli ularoq bo'lib, ushbu usullarni ta'lim jarayonida qo'llashda o'quvchilarning psixologik komponentiga ko'proq urg'u berish orqali dars jarayonini mazmunli tashkil qilish mumkin. Ta'lim jarayonida turli interfaol metodlardan foydalanib darsni turli seminar-trening shaklida tashkil qilish dars samaradorligini yanada oshirib, o'quvchilarni mantiqiy dunyoqarashini kuchayishiga yordam beradi. Masalan, akademik litseyda matematika darsida biror mavzuni juda tez va oson o'zlashtirish uchun dars jarayoniga turli interfaol metodlarni kiritish va doimiy bir xillikdan uzoqlashish lozim, bunda dars jarayoni noan'anaviy shaklda jamoalarga bo'lgan holda tashkil qilinib, doska 3 qismga ajratiladi, unda mavzuga oid 3ta masala doskaga yoziladi va o'quvchilar muayyan vaqt beriladi va berilgan vaqtda shu masalani tez va oson usulda ishlab berishi kerak, bunday metod orqali dars jarayonida "fikrlar jangi", "formulalar doskasi", "uddaburonlar maydoni" metodlari yaqindan yordam beradi, dars so'ngida faol jamoalar rag'batlantirilishi lozim, buning natijasida esa o'quvchi kelgusi darsga yanada katta kuch-g'ayrat bilan tayyorgarlik ko'radi. Bundan kutilayotgan natija esa, avvalo o'quvchilarda zarur bilim ko'nikma tez va oson shakllanadi, qolaversa dars jarayonida qolgan o'quvchi-talabalarda turli bahs-munozara va kreativ g'oyalar paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Ushbu darslarda o'quvchi-talabalarning bilim olish jarayoni o'yin faoliyati orqali uyg'unlashtiriladi. Shu sababli o'quvchi-talabalarning ta'lim olish faoliyati o'yin faoliyati bilan uyg'unlashgan darslar didaktik o'yinli darslar deb ataladi.

O'yinli darslar kelajakda bo'lg'usi intellektual avlod hayotida quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- o'yin faoliyati orqali shaxsning o'qishga, mehnatga bo'lgan qiziqishi ortadi;
- o'yin davomida shaxsning muloqotga kirishishi ya'ni, kommunikativ muloqot madaniyatini egallashi uchun yordam beriladi;
- shaxsning o'z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o'zligini namoyon etishiga imkon yaratiladi;
- hayotda va o'yin jarayonida yuz beradigan turli qiyinchiliklarni yengish va mo'ljalni to'g'ri olish ko'nikmalarining tarkib topishiga yordam beradi;
- o'yin jarayonida ijtimoiy normalarga mos xulqatvorni egallash, kamchiliklarga barham berish imkoniyati yaratiladi;
- shaxsning ijobiy fazilatlarini shakllantirishga zamin tayyorlaydi;

- insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan qadriyatlar tizimi, ayniqsa, ijtimoiy, ma'naviy-madaniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishga e'tibor qaratiladi;
- o'yin ishtirokchilarida jamoaviy muloqot madaniyatini rivojlantirish ko'zda tutiladi.

Ta'lim jarayonida o'tkazilgan bu boradagi turli eksperimental mashg'ulotlar shuni ko'rsatdiki, bunday treninglar o'quvchilarda bugungi kunda jamiyatda, umuman hayotda o'z o'rnini topish uchun zarur bo'lgan sifatlarni shakllantirishga hizmat qiladi. Masalan, "SCORE", "SWOT" tahlil usullari, "formulalar jangi" treningi talabalarda mustaqil, mantiqiy fikr yuritish, qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi, "og'zaki jurnal", "ishbilarmonlar o'yini" treninglari ularda ijodkorlik hislatlarini tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllanishiga va doimo diqqatli bo'lishga undaydi, qolaversa har bir o'quvchida turli intellektual qobiliyatlar namoyon qilish va rivojlantirishga ko'maklashadi, "fikrlar jangi", "formulalar doskasi", "uddaburonlar maydoni" metodlar esa o'quvchi-talabalarda matematika, fizika, kimyo va boshqa fanlarni o'zlashtirishda tezlikni oshirishga katta yordam beradi. Quyida bir metodga izoh berib o'tsak:

**"Diqqatni jaml!"** Ta'limda enerjazerlar, ya'ni tetiklashtiruvchi o'yinlar muhim ahamiyatga ega va juda kerakli hisoblanadi. Ushbu metodni ham darsning tetiklashtiruvchi qismida foydalanish mumkin. O'quvchilardan uyga vazifa qilib berilgan formula va qoiqalarni so'rayotganda shardan foydalanamiz. Sharni yerga tushirmagan holatda javob berishlari kerak. Shar har safar qo'llariga tushganda bitta qoidani aytishadi. Bu o'yin diqqatni jamlab, bolalarda ziyraklikni oshiradi. Miyalari har tomonlama ishlashga majbur bo'ladi. Qolaversa, qiziqarli atmosfera hosil qilinadi. Siz ham o'quvchilaringizda sinab ko'ring. Mavzuni gapirayotganlarida sharni yerga tushirmasdan gapirishsin. ●●●. Bir paytda 2-3 ta narsani bajarish miyani ancha chiniqtiradi.

Bundan tashqari, qo'llanilgan barcha innovatsion usullar o'quvchilarda o'ziga va ertangi kunga katta ishonch, jamoa bilan ishlash, jamoada o'zgalar fikrini, mehnatini qadrlash va hurmat qilish, kelajakda hayotga optimistik munosabatni shakllantirishni to'la namoyon qiladi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, pedagoglar oldiga hozirgi davr tomonidan qo'yilayotgan talablarni bajarish uchun, albatta ta'lim va tarbiya jarayoniga innovatsion yondashish va turli didaktik texnologiyalarni kiritish lozim, deb ta'kidlashimiz mumkin.

### Adabiyotlar:

1. Islom Karimov “Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch”. Toshkent “Ma'naviyat” 2010 y.
2. B.Ziyomuxammedov. “Komillikka eltuvchi kitob”. Turon-iqbol nashriyoti. 2006 yil 350-bet.
3. Barkamol avlod tarbiyasida sog‘lom turmush tarzi jismoniy madaniyati mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Farg‘ona 2011 yil 185-bet.
4. “Barkamol shaxsni tarbiyalashda innovatsion texnologiyalar”. Shonazarova D. B., “O‘zbekistonda uzluksiz ta’limni rivojlantirishning dolzarb masalalariga oid ilmiy-amaliy tadqiqotlar” mavzusidagi ilmiy – nazariy onlayn konferentsiya materiallari.
5. Akhmadzhonova Y. T., Akhmadzhonova, U. T. (2021). “Press conference” in the delivering of chemistry. Экономика и социум, (3-1), 20-22.
6. Yaxshiyeva Z. Z., Akhmadjonova, Y. T., Akhmadjonova, U. T. (2021). Ta’lim sifatini baholash xorij tajribasi misolida o‘rganilmoqda. Integration of science, education and practice. Scientific-methodical journal, 383-385.
7. Qulboyev Z., Urinov, S., Abduraxmonov, A. (2021). Texnika yo‘nalishidagi oliy o‘quv yurtlarida qattiq jismlar fizikasi bo‘limini o‘zlashtirish samaradorligini oshirish yo‘llari. Science and Education, 2(10), 380-386.
8. Сиддикова, Ш. А., Яхшиева, З. З. (2021). Научный подход оценивания знаний на основе вопросов PISA. Журнал естественных наук, 1(4).